

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11069633>

VOYAGA YETMAGANLAR O‘RTASIDA EKSTREMIZMNING OLDINI OLDINI OLISH VA UNGA QARSHI KURASHISH

Yorqinoy Urazbayeva Atanazarovna

Yakubova Yulduz Gulummatovna

Xorazm viloyati Yangibozor tumanidagi 4-son va 15-son umumiy o‘rta ta’lim
maktabi psixologlari

ANNOTASIYA: Bugungi kunda ekstremistik va xalqaro terrorchilik tashkilotlari diniy aqidalar niqobi ostida yoshlarni zo‘ravonlikka, milliy o‘zligini, madaniy-ma’rifiy va oilaviy qadriyatlarini yo‘qotishga undash yo‘li bilan jamiyatda zo‘ravonlik va radikal qarashlarni tarqatishni davom ettirmoqda. Globallashuv sharoitida hamda xalqaro va mintaqaviy mojaralar transformatsiyasi davom etayotgan bir paytda, ekstremizm va terrorizmga qarshi samarali kurashish masalasi kun tartibidagi dolzarb mavzulardan biri bo‘lib qolmoqda.

Kalit so‘zlar: Ekstremizm, terrorizm, zo‘ravonlik, vatanparvarlik, tarbiya, bag‘rikenlik, qadriyatlar, hamkorlik, profilaktika, milliy strategiya.

Ekstremizm va terrorizmning oldini olish va chek qo‘yish hamda ularni moliyalashtirish manba va kanallariga barham berishga qaratilgan yanada samarali chora-tadbirlarni belgilash, bu borada milliy va xalqaro darajada sa’y-harakatlarni birlashtirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchilikka to‘xtalib o‘tsak, bu yerda ikkita muhim xujjatlarga e’tiboringizni qaratmoqchimiz.

Bular,

- O‘zbekiston Respublikasining “Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida” Qonuni, 30.07.2018-yildagi O‘RQ-489-son
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2021 — 2026-yillarga mo‘ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi Farmoni, 01.07.2021-yildagi “ PF-6255-son.

Bu yo‘nalishda profilaktika ishlarini tashkil etilishining ustuvor vazifalarni belgillashdan oldin, mavzuga oid tushunchalar bilan tanishib utamiz. O‘zbekiston Respublikasining 30.07.2018-yildagi O‘RQ-489-son “Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida” Qonunining 3-moddasiga asosan quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi: ekstremizm — ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini zo‘rluk bilan o‘zgartirishga, hokimiyatni zo‘rluk ishlatib egallashga va uning vakolatlarini o‘zlashtirib olishga, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo‘zg‘atishga qaratilgan harakatlarning ashaddiy shakllari ifodasi; ekstremistik faoliyat — quyidagilarga:

O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi asoslarini zo‘rluk bilan o‘zgartirishga, hududiy yaxlitligi va suverenitetini buzishga, hokimiyat vakolatlarini egallashga yoki o‘zlashtirishga, qonunga xilof qurolli tuzilmalar tuzishga yoki ularda ishtirok etishga, terrorchilik faoliyatini amalga oshirishga, zo‘rluk yoki zo‘rluk ishlatishga oshkora da‘vat qilish bilan bog‘liq holda milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo‘zg‘atishga; jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soluvchi materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etishga, shuningdek ekstremistik tashkilotlarning atributlarini yoki ramziy belgilarini tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etishga; biror-bir ijtimoiy guruhga nisbatan siyosiy, mafkuraviy, irqiy, milliy, etnik yoki diniy adovat yoxud dushmanlik sababli ommaviy tartibsizliklarni amalga oshirishga; ushbu moddaning to‘rtinchi — o‘ninchi xatboshilarida ko‘rsatib o‘tilgan harakatlarni amalga oshirish uchun oshkora da‘vat qilishga qaratilgan harakatlarni rejalashtirishga, tashkil etishga, tayyorlashga yoki

sodir etishga doir faoliyat;ekstremizmni moliyalashtirish — ekstremistik faoliyatning mavjud bo‘lishini va faoliyat ko‘rsatishini, shaxslarning ekstremistik faoliyatda ishtirok etish uchun xorijga chiqib ketishini yoki O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali harakatlanishini ta’minlashga, ekstremistik tashkilotlarga yoxud ekstremistik faoliyatga ko‘maklashayotgan yoki bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag‘larni, resurslarni berishga yoxud yig‘ishga, boshqa xizmatlar ko‘rsatishga qaratilgan faoliyat;ekstremist — ekstremistik faoliyatni amalga oshirishda ishtirok etayotgan, shuningdek ekstremistik faoliyatda ishtirok etish uchun xorijga chiqib ketishni yoxud O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali harakatlanishni amalga oshirgan shaxs;ekstremistik material — ekstremistik faoliyatni amalga oshirishga oshkora da’vat qiladigan yoxud shunday faoliyatni amalga oshirish zarurligini asoslab beradigan yoki oshkora oqlaydigan, tarqatish uchun mo‘ljallangan hujjat yoki har qanday vositadagi boshqa axborot;ekstremistik tashkilot — ekstremistik faoliyatni amalga oshirganligi tufayli o‘ziga nisbatan faoliyatini tugatish yoki taqiqlash to‘g‘risida sudning qonunda nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha qonuniy kuchga kirgan qarori qabul qilingan tashkilot.5-modda. Ekstremizmga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari Ekstremizmga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:ekstremizmning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, shu jumladan aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda ekstremizmga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish, shuningdek uning yuzaga kelishiga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, ekstremizm sohasidagi huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash va ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini bartaraf etish, shuningdek javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta’minlash,ekstremizmga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro hamkorlik. Ekstremizmning oldini olishga doir chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda ekstremizmga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish,ekstremistik faoliyatni amalga oshirishga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risida rasmiy ogohlantirish chiqarish,yuridik shaxs tomonidan

ekstremistik faoliyat amalga oshirilishiga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risida taqdimnoma kiritish, ekstremistik materiallarni olib kirish, tayyorlash, saqlash, tarqatish va namoyish etishni taqiqlash; ekstremizmni moliyalashtirishni taqiqlash; yuridik shaxsning faoliyatini to‘xtatib turish; tashkilotni ekstremistik tashkilot deb topish. Ekstremizmning oldini olishga doir chora-tadbirlar qonunchilikka muvofiq boshqa chora-tadbirlarni ham o‘z ichiga olishi mumkin.

8-modda. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda ekstremizmga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda ekstremizmga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi: tushuntirish ishlarini olib borish; huquqiy tarbiya va ta‘limni tashkil etish; ekstremizmga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha o‘quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlarni ishlab chiqish; madaniy an‘analarni, ma‘naviy, axloqiy va vatanparvarlik ruhidagi tarbiyani mustahkamlash; ilmiy-amaliy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish; ekstremizmga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini hisobga olgan holda ta‘lim dasturlarini takomillashtirish. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda ekstremizmga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish qonunchilikka muvofiq boshqa yo‘llar bilan ham amalga oshirilishi mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A., O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizligi tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari, T., 1997
2. Hasanov, Ahadjon. O‘Zme. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikga tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O‘zbekiston, 1997
4. Mirziyoyev Sh.M “Ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash-davr talab” mavzusida anjumandagi nutqi.